



Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences

Journal home page:
<http://ijournal.uz/index.php/jartes>



Journal of Academic Research and
Trends in Educational Sciences
(JARTES)

VOL. 2, ISSUE 1

ISSN 2181-2675

www.ijournal.uz

THE ROLE OF THE COACHING APPROACH IN TEACHING A FOREIGN LANGUAGE

Nigora Djampulatova¹

Uzbek National Institute of Musical Art named after Yunus Rajabi

KEYWORDS

coaching process, quality result, psychology, management, philosophy, logic and life experience, coaching attitude

ABSTRACT

The article provides information about the origin of the coaching phenomenon and the methodology of its work. It also talks about why and who needs coaching, how it helps the student and his result. The article briefly discusses the effective and efficient role of coaching in teaching foreign languages.

2181-2675/© 2023 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: 10.5281/zenodo.7712850

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Uzbek National Institute of Musical Art named after Yunus Rajabi, Tashkent, Uzbekistan

CHEZ TILINI O'QITISHDA KOUCHING YONDASHUVNING O'RNI

KALIT SO'ZLAR:

kouching jarayoni, sifatli natijaga, psixologiya, menejment, falsafa, mantiq va hayotiy tajriba, kouchinglik munosabati

ANNOTATSIYA

Maqola kouching fenomenining kelib chiqishi va uning ishslash metodikasi haqida ma'lumot beriladi. Shuningdek kouching nima uchun va kim uchun kerak, uning talabaga beradigan yordami qanday va uning natijasi haqida ham so'z boradi. Maqolada chet tillarni o'qitishda kouchingning samarali va unumli o'rni haqida qisqacha to'htalib o'tilgan.

"Kouching" so'zi nisbatan yaqinlarda paydo bo'ldi, lekin tushuncha sifatida ming yillardan buyon mavjud. Kouching g'oyasini qadimi yunon faylasufi Sokrat "Men hech kimni hech narsaga o'rgata olmayman, men faqat o'ylashga majbur qila olaman" degan fikrlar bilan aytib ketgan, uning fikrlari faylasuflarning e'tiboridan chetda qolgan edi.

Bu so'zni osongina tavsiflash uchun, o'zingizni trenajor zalistagi sport mashqida deb tasavvur qiling. Sizga qanday qilib to'g'ri bajarishni ko'rsatadi, harakatingizni qaerini to'g'rilashni aytadi va mashq boshlashdan oldin erishishni hohlashga sifatli natijagacha to'ldiradi.

Bu analogiya kouching jarayonida – yangilikka yoki maqsadga erishishga o'rgatishda odamda qanday hodisa bo'layotganligini juda chiroyli tavsiflaydi.

Kouching (ingl. coaching – ko'rsatma berish, murabbiylik, mashq qilish, repititor bilan mashg'ulot) – maslahat berish va trening uslubining an'anaviy trening va an'anaviy maslahat berishdan kouch maslahat qattiq tavsiyalar bermasligi, mijoz bilan birgalikda yechim izlashi bilan farq qiladi. Shuningdek, kouchingning boshqa barcha maslahatlardan farqi – unda mijoz o'zining salohiyatini joriy etishiga umid qilishidir.

Kouching psixologiya, menejment, falsafa, mantiq va hayotiy tajriba birligidan paydo bo'lgan. Bu jarayon hayotning turli sohalari va faoliyatida maqsadlarga erishishga qaratilgan. Kouching g'oyasini ifodalaydigan ekvivalentlardan biri "birgalikda erishish" yoki "rivojlantiruvchi maslahat berish"dir.

Chet tillarini o'qitish sohasidagi yangilanish jarayonlarida o'qituvchilarga fanni o'qitish uchun modellarni mustaqil tanlash, fanni o'qitish uchun kurslarni yaratish uchun huquq va imkoniyat beriladi. Bunday holatlarda aynan pedagog yangi va o'qitish uchun qulay bo'lgan uslublarni tanlashi kerak bo'ladi. Biroq, ko'pgina turli xil til o'rganish uslublari orasidan aynan samarador uslubni tanlash qiyinchilik tug'diradi. Shu bilan birga til o'rganish uchun qulay va samarador usulni tanlaganda, faqatgina ma'lum bir chegara doirasida emas, balki ijodkorlikga ham ahamiyat berish zarurligini unutmaslik kerak. O'rganishning strategik maqsadi- o'rganilayotgan tilning kommunikativ qobiliyatini rivojlantirish va ogzaki kompetentsiyani rivojlantirishga qaratilgan.

Yuqorida aytilganlarga asoslanib, bugungi o'qituvchining vazifasi chet tilini o'rgatish

uchun qulay muhit yaratish, chet tilini o'qitish tizimini o'zgartirish va unga o'z-o'zidan moslashishdir.

Hozirgi vaziyat shundayki, o'qituvchi, barcha talabalarga bilimlarni taqdim etishning o'ziga xos tizim bilan ishlaydi va an'anaviy tamoyilga muvofiq yo'l tutadi: "Huddi mendek qil!". "Men aytganimni qil" yondashuvi tartibi kamdan-kam hollarda javobgarlikni qabul qilishga yordam beradi va faoliyat natijasi ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga imkon bermaydi.

Bizning fikrimizcha, agar siz tushunchalarni tushunsangiz, hamma narsa juda mantiqiy. Yangi boshlanuvchilar, "yosh" va tajribasiz (bakalavr talabalari) bilan asosan mentorlar va murabbiylar ishlaydi, "championlar" - yuqori darajadagi mutaxassislar (katta talabalar) bilan esa kouchlar, shu o'rinda, ustozning, kouch qo'llagan uslubda ishlashi majburiy emasligini hisobga olish kerak.

Tabiiyki, ko'plab o'qituvchilar uchun etakchilikdan voz kechish qiyin. Ta'lim jarayonidagi roli, pozitsiyalarini, qarashlarini targ'ib qilish, "Mening haqiqatim dunyodagi eng yaxshi haqiqatdir", "Men bu borada mutaxassisman va sohani bilaman", "Men qilgandek qil!" deyish mumkin, ammo talaba faqat shunday qiladi degani emas, chunki u butunlay boshqacha bo'lishi mumkin, muammoni boshqacha ko'rishi, ba'zan yanada ijodiy va samarali yondashishi mumkin.

Ko'rsatmalarni ko'pchilik talabalar yomon qabul qiladi yoki odatga kura ko'proq o'quvchilar o'qituvchi ulardan nimani xohlayotganini tushunmaydilar yoki muammoning yechimiga ongli ravishda qarshi chiqadilar. Kouchlar allaqachon mavjud bilimlarni targ'ib qilishga tayanadi, talabalar esa bilimlarni nazariyadan amaliyotga o'tkazish zarurati qolmaydi, talabalar uchun bu yo'l juda osson va ko'pchiligidir aynan shu usulda tahsil olganmiz.

Kouchinglik munosabatlarning boshqa bir ko'rinishidir. 1.1-bandda aytilganidek kouch eng avvalo hamkorlikdir. Va agar kouch murabbiy sifatida ishlay boshlasa, maslahat bersa, o'z nuqtai nazarini yuklasa - u endi sherik emas. Ideal holda "Kouchinglik-bu individuallikni kashf qilish, fanga bo'lgan katta qiziqishning yangicha ko'rinishini ochib berishidir. [17, b. 182].

Kouch talabaning yangi qirralarini ochib berish bilan birga, u bilan hamkorlikda ishlaydi, va unib o'sish uchun urug' vazifasini bajaradi. Talabalar muammoni hal qilishning optimal va o'zlari uchun qulay yo'llarini qidirishadi.

Qoidaga ko'ra, biz biror narsani xohlasak, ko'pincha kuchimizni, energiya, vaqtimizni, behuda sarflaymiz, lekin natijada hech narsa o'zgarmaydi, biz o'rnimizda qolamiz. Maqsad biz uchun muhim bo'lsa, biz nimadir qilamiz va kouch shogirdga yordam beradi, hozir va shu yerda harakatni boshlash kerakligiga undaydi, seni qo'lingdan keladi, sen uddalaysan deb, motivatsiya beradi. Kouchning vazifasi, talaba maqsadiga erishmagunga qadar unung yonida bo'lish va qo'llab quvvatlash.

O'qituvchi murabbiy va kouch tushunchasini taqqoslaganda ta'lim jarayonida ishlatiladigan bu ikki tushuncha orasidagi chegarani kuzatishimiz mimkin.

- Murabbiy so'zi takabbur ma'nosiga ega, so'ssiz bajarilishi kerak bo'lgan prinsip,

"shunday qilinishi kerak" va ta'lif jarayonida muvofiq rivojlanadigan ob'ektiv munosabatga asoslanadi.

Mentorlik - bu e'tirozlarga, maslahatlarga toqat qilmaydigan dono maslahatchining avtoritar ko'rsatma turi.

- Kouchingda ko'rsatma mavjud emas, nima ustida ishlashni talabaning o'zi hal qiladi.

Kouch talabalarga ular nimani istashayotganini tusunishga va to'gri maqsad qo'yishga yordam beradi va shu tariqa talaba kelajak ishi uchun raja tuzadi.

- Murabbiy-ustozlar tajriba almashish orqali muammolarni hal qilishga yordam beradi. Shunday qilib, "tayyor" yechimlar vujudga keladi bu esa kamdan-kam hollarda rivojlanishga va yangi tashabbuslarga hissa qo'shadi

- Kouchlar talabalarda mas'uliyat va mustaqillikni rivojlantirish orqali muammolarni hal qilishga yordam beradi.

Xulosa.

Xulosa qilib, ko'plab ishlarning natijalarini umumlashtirgan holda "kouching" haqidagi muammoni, biz I.Ribkinding fikriga tayangan holda kouchingda asosiy maqsadi bu talabalarning dunyoqarashini maksimal o'zgartirishga qaratilgan shaxsiy va professional muvaffaqiyatga qaratilgan ish deya olamiz. "Bu shunchaki chiroyli ibora emas. Bu total kouchinglikning mohiyatidir. shaxsning uzluksiz rivojlanishi va takomillashuvi jarayoni"

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. <https://www.cal.org/siop/pdfs/digests/coaching-language-teachers.pdf>
2. E.G. Azimov, A.N.Shukin. Uslubiy atamalar va tushunchalarning yangi lug'ati IKAR nashriyoti. — 2009
3. Online etymology dictionary.2015
4. Passmore, Jonathan, ed. (2016) [2006]. Excellence in Coaching: The Industry Guide (3rd ed.). London; Philadelphia: Kogan Page. ISBN 9780749474461. OCLC 927192333
5. DJAMPULATOVA NIGORA MAXMUDOVNA. COMMUNICATIVE DIFFICULTIES IN ENGLISH AND WAYS TO OVERCOME THEM. Тип: статья в журнале - научная статья Язык: английский.. Год: 2021. Страницы: 10-11
6. Yuldasheva, Nasiba Kamolovna, Djampulatova, Nigora Makhmudovna TALABALALARNING KOMMUNIKATIV RIVOJLANISHI KONTEKSTIDA KOUCHINGLIK MODELI // ORIENSS. 2022. №11. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/talabalalarning-kommunikativ-rivojlanishi-kontekstida-kouchinglik-modeli>.
7. Abbasovna S.M. The importance of listening and understanding in basic foreign language in higher education institutions. International Journal of Psychosocial Rehabilitation. eISSN: 1475-7192
8. Mansurovna, Bahrombekova Munisa. "Modern methods of teaching foreign language." ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal (2022): n. pag.

9. Abidova Zilola, Tursunova Umirahon, Khusomiddinova Malika The role of media technologies in Developing intercultural competence of Student's // Бюллетень науки и практики. 2019. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/the-role-of-media-technologies-in-developing-intercultural-competence-of-student-s>
10. Akramxodjayeva DilfuzaAbduganiyevna. Talabalarida leksik kompetensiyalarni rivojlantirish.Ta'lim fidoyilari-Respublika ilmiy metodik jurnal ISSN 2180_2160. 2022/1/28. Pages 363-369
11. Karima Saydanovna Rakhmanberdiyeva. FORMATION OF INDEPENDENT EDUCATION IN STUDENTS.BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMY JURNAL.2022/3/4. pages 328-330
12. <https://mentoringgroup.com/what-is-coaching.html>
13. <https://en.wikipedia.org/wiki/Coaching>
14. <https://www.youtube.com/watch?v=DTYXuHoFa8Q>
15. <https://www.pushfar.com/article/mentoring-vs-coaching-the-key-differences-and-benefits/>
16. MARHABO RAXMONKULOVNA ABDULLAYEVA. DUNYO TILSHUNOSLIGIDA "O'QUV LUG'ATI" TERMININING PAYDO BO'LISHI TAXLILI. "Language teaching: new approaches and innovations" mavzusida ilmiy-amaliy online konferensiya. TDSHU. 2022/5.Pages 50-53